

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TASHABBUSKORLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI

Kadirova Omadxon

*Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya fakulteti o‘qituvchisi.*

Tojiyeva Mahliyo

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim va maxsus pedagogika fakulteti
Maktabgacha talim yo‘nalishi
2 bosqich 201 -guruh talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagini bolalarning tashabbuskorligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Tashabbuskorlik — bolada mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, faol harakat qilish kabi muhim ijtimoiy-psixologik sifatlarni shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Muallif maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashning innovatsion metodlari, o‘yin faoliyatining roli, hamda tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining ahamiyatini tahlil qiladi. Shuningdek, amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, tashabbuskorlik, o‘yin faoliyati, tarbiyachi, rivojlanish, mustaqillik, metodika.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor vazifa sifatida belgilangan: maktabgacha ta’limda fanlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalar va modullarni ishlab chiqish, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning mazmuniy hamda jarayonli izchilligini takomillashtirish, bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy mashg‘ulotlar va harakatli o‘yinlar orqali sportga qiziqishni kuchaytirish, sog‘lom avlodni tarbiyalashga e’tibor qaratish. Shuningdek, maktabgacha yoshdagini bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiyasi darajasini oshirish, STEAM ta’limining asoslarini erta yoshdan joriy qilish, shuningdek, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali ularning kelgusida o‘z salohiyatini namoyon qilishiga zamin yaratish muhim deb topilgan. Chunki

inson hayotidagi ilk bilimlar, tasavvurlar va xotira asoslari aynan bolalik davrida shakllanadi. Bola ruhiy va intellektual rivojida ijtimoiy muhitning ta'siri beqiyosdir. Ta'lim olish esa inson hayotining eng muhim va ajralmas jihatlaridan biri bo'lib, aynan bolalikda bilim olish jarayoni boshlanadi. Shu yoshda (5–6 yosh) bolalarning o'zlashtirish salohiyati nihoyatda yuqori bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim davri — bolalarning shaxs sifatida shakllanishining muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, ijtimoiylashuv kabi qobiliyatlar rivojiana boshlaydi. Tashabbuskorlik — bolaning ijtimoiy tajribani faol egallashi, o'z fikrini erkin ifodalashi va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu sifatni shakllantirish nafaqat tarbiyachining, balki oilaning ham muhim vazifasi hisoblanadi.

Tashabbuskorlik bu — bolaning o'z xohishiga ko'ra faoliyat boshlashi va uni mustaqil davom ettirishidir. Bu sifat bolada faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantiradi.

Shuni ham aytish joizki, o'yinlarni samarali tashkil etish, eng avvalo, ularning dasturiy mazmunini to'g'ri tanlash va puxta rejulashtirishni talab etadi. Bu jarayonda o'yin maqsadlarini aniq belgilash, o'quv jarayonidagi o'rnini va ahamiyatini tushunish, hamda boshqa o'yin turlari yoki ta'lim shakllari bilan qanday bog'liqlikda bo'lishini aniqlash muhimdir. O'yinlar bolalarning aqliy faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini oshirishga xizmat qilishi, shuningdek, turli muammolarni hal qilishda har xil yondashuvlardan foydalanishni o'rgatishi kerak. Unda ishtirok etayotgan bolalar o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirishi, bir-birlariga yordam berishga tayyor bo'lishi zarur.

Bolalarda o'yinlarga bo'lgan qiziqishni oshirish va yoshi katta guruhlarda o'yin faolligini rivojlantirish uchun pedagog o'yin davomida murakkabroq topshiriqlar berishi, harakatlarni oldindan belgilamasligi maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati avvalgidan ongliroq tus oladi; ular o'yinning o'zi emas, balki undan olinadigan natijaga ko'proq e'tibor qaratadilar. Shunga qaramay, katta guruhlarda o'yinlarni boshqarishda ham shunday sharoit yaratish kerakki, bolalar o'zlarini qulay his qilsinlar, hissiy jihatdan ijobiy kayfiyatda bo'lishsin va o'yindan zavqlanishsin.

O‘yinlar davomida do‘stlik va hamkorlik munosabatlari shakllanadi. Bola besh yoshga yetganda, uning kuzatuvchanligi avvalgiga nisbatan kuchayadi, tafakkuri rivojlanadi va bilish qobiliyati kengayadi. Shuning uchun bu davrdagi o‘yinlar murakkabroq bo‘la boshlaydi. Tasavvur rivojlanishi natijasida bolalar ertaklar va hikoyalar asosida syujetli o‘yinlar o‘ynashga kirishadilar. Katta guruhdagi bog‘cha yoshidagi bolalar esa ijodiy o‘yinlarga faol jalb bo‘ladi. Bunday o‘yinlar orqali ular eshitgan, ko‘rgan voqealar, hikoyalar, kitoblar va boshqa manbalardan olgan bilimlarini, ko‘nikmalarini va his-tuyg‘ularini amalda qo‘llay boshlaydilar.

O‘yin mакtabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Ro‘lli o‘yinlar, ijodiy vazifalar bolalarning mustaqil qaror qabul qilishiga, tashabbus ko‘rsatishiga yordam beradi.

O‘yining borishi davomida bolalar o‘z maqsadlariga erishish uchun bir-birlari bilan faol muloqotda bo‘lishadi. Agar o‘yining ayrim bosqichlarida qiyinchiliklar yuzaga kelsa, tarbiyachi bu holatga aralashib, bolalarning harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltiradi. O‘yin nihoyasida esa yakuniy natijalar tahlil qilinib, umumlashtiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini shakllantirishda ularning hissiy-emotsional holatiga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Bunda: bolalarga nima yoqqani, nimada qiyinalishgani, voqeа qanday rivojlangani, ishtirokchilarning harakati qanday bo‘lgani va natija qanday chiqqani kabi savollarga javob izlash orqali yuzaga kelgan muammolar birgalikda bartaraf etiladi.

Zamonaviy ta’lim muassasalarida o‘yinga asoslangan darslar iliq, ijobiy va psixologik jihatdan qulay muhitda – do‘stona, erkin va tenglik tamoyillari asosida tashkil etilishi zarur. O‘yin texnologiyalari bolalarning o‘z fikrini erkin bildirishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashiga ko‘maklashadi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalar real hayotga yaqin o‘yin sharoitida faol ishtirok etish orqali murakkab materiallarni osonroq o‘zlashtirishadi. Ularning yangi vaziyatda o‘z kuchini sinab ko‘rib, o‘yindan zavq olishlari juda muhimdir.

Tarbiyachi bolalarning tashabbuskorligini rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi lozim. U bolalarga savollar berish, ijodiy topshiriqlar taklif etish, ular fikrini hurmat qilish orqali ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasasida faoliyat yurituvchi tarbiyachi yaxshi biladiki, bolaning ta’lim yo‘lidagi dastlabki bosqichlari uning keyingi hayotiy yo‘nalishini belgilab beradi. Maktabgacha ta’lim dasturlarida qatnashgan bolalar maktabga ko‘proq tayyor bo‘lishadi hamda ular hayot davomida zarur bo‘lgan ko‘nikma va odatlarni erta bosqichda o‘zlashtira boshlaydilar. Mazkur dasturda matematika, tabiiy fanlar, adabiyot hamda san’at kabi yo‘nalishlar alohida o‘rin tutadi. Ushbu fanlarni o‘rganish bolalar uchun qiziqarli shaklda tashkil etilishi mumkin bo‘lib, ular kichkintoylarning e’tiborini osongina jalb etadi.

Motivatsiya esa ta’lim strategiyasining ajralmas qismidir. Tarbiyachining maqsadi – bolalarning rag‘batini oshirish orqali ularni kelajakda hayotda muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirishdir. Bolalarning o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otish, ularda qiziqish va faoliyatga bo‘lgan ishtiyoqni shakllantirish eng samarali metodlardan biridir. Buni bolalarning tabiiy qiziquvchanligini rag‘batlantirish, o‘rganilgan mavzular asosida savollar berish, o‘z fikrini bildirishga undash orqali amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, ertak va hikoyalardan foydalanish ham ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka ega. Ertaklar bolalar uchun oson qabul qilinadigan, hayajonli va ko‘ngilochar vosita bo‘lib, ular orqali tasavvur, xotira, tafakkur kabi psixik jarayonlar faol rivojlanadi. Bolalar ertaklarni nafaqat tinglaydi, balki rollarga bo‘linib sahnalashtiradi, bu esa ularning ijodiy va nutqiy rivojiga xizmat qiladi.

O‘qituvchi xalq ertaklari yoki jahon adabiyotiga mansub hikoyalardan foydalangan holda bolalarda nafaqat til ko‘nikmalarini, balki didaktik va vatanparvarlik tuyg‘ularini ham rivojlantirishi mumkin. Shunday yo‘l bilan ta’lim jarayonida bolalarning zerikmasdan ishtirok etishi, dars davomida o‘zini erkin va faol his qilishi ta’minlanadi. Bundan tashqari, hikoyalarda aks etgan hayotiy voqealar orqali bolalarni turli hayotiy holatlar bilan tanishtirish ham mumkin.

Ota-onalar bolaning fikrini tinglash, uni qo‘llab-quvvatlash, kichik mas’uliyatlarni yuklash orqali tashabbuskorlikni oshirishda faol ishtirok etishlari lozim.

Psixologik jihatdan qaralganda, bolalarni kichik guruhlarga ajratish, ularga loyiha doirasida o‘z fikrlarini bildirish, tashabbus ko‘rsatish va umumiy g‘oya asosida eng yaxshi

takliflarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Kichik guruhda ishlashning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bolalarda tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash va bilishga bo‘lgan ichki rag‘batni rivojlantirish orqali ularning irodaviy sifatlarini shakllantirish;
- Axborotni izlab topish va mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali xotira va tafakkurni kuchaytirish;
- Integratsiyalashgan yondashuv asosida bolalar bilan ishlash orqali ularning e’tibor va tasavvur doirasini kengaytirish;
- O‘zaro hamkorlikni shakllantirish orqali bolalarning muloqot madaniyati va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Bolaning jamoaga moslashuvchanligini ta’minlash hamda maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- Bola o‘zini muvaffaqiyatli, intellektual salohiyatli shaxs sifatida his qiladigan qulay ta’lim muhitini yaratish.¹

Bolaning aqliy rivojlanishi idrokdan boshlanadi. Ob'ektlar va sezgilarning o‘zaro ta’siri orqali sensorli ma'lumotlar bolaning ongiga kirib boradi. U turli rangdagi raqamlarni ko‘radi, yumshoq o‘ynchoqlarga tegadi va atrofidagi buyumlarni tushunishga harakat qiladi. Bu orqali yig‘ilgan sezgi tajribalari keyinchalik foydalanish uchun ongda saqlanadi.

Maktabgacha yoshda bolaning idroki sezilarli darajada rivojlanadi va muhim yutuqlarga erishadi, jumladan:

- atrof-muhitdagи narsalarni kuzatib, ularning asosiy xususiyatlarini ajratib olish;
- hissiy holatlarni anglash va ulardan to‘g‘ri foydalanish;
- fazoviy tasavvurlar — masalan, chuqurlik, balandlik kabi tushunchalarni shakllantirish;
- vaqt ni his qilish va vaqt oralig‘ida yo‘nala olish;
- san’at asarlarini tushunish va baholash qobiliyatining shakllanishi.

¹ Vygotskiy, L.S. “Bola rivojlanishining psixologik asoslari.” – Moskva: Pedagogika, 2004.

Taxminan 3 yoshga kelib, bola murakkab hodisalarni anglash, eslab qolish va doimiy o‘zgaruvchilarga ega ob'ektlarni tanib olish salohiyatiga ega bo‘ladi. 5 yoshda esa u o‘z o‘yinlari orqali o‘zining idrokiy va emotsiyal fazilatlarini to‘liq namoyon qila boshlaydi.

Katta maktabgacha yoshga kelganda esa bolaning idroki intellektual bosqichga o‘tadi. Tarbiyachi unga narsani o‘rganish yoki uning xususiyatlarini aniqlash kabi vazifalarni beradi, shuningdek, idrok etilgan ob'ekt haqida batafsил nutqiy tavsif berishni so‘raydi. Bola esa bunday topshiriqlarga javob bera oladigan darajaga yetadi.

Maktabgacha yosh — bu shaxsiyat shakllanishining qisqa, biroq ahamiyatli davridir. Aynan shu bosqichda bola hayot haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qiladi, odamlar va mehnatga nisbatan munosabatni shakllantiradi, to‘g‘ri xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlari paydo bo‘ladi, xarakteri rivojlanadi.

Ushbu davrda pedagogning o‘z faoliyatida o‘yin va ko‘ngilochar materiallardan foydalanishi nihoyatda muhim, chunki ular bolaning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mantiqiy fikrlash va istaklarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, psixologik bosimni kamaytirib, muammoni sezishga yordam beradi.

Shuning uchun har bir mashg‘ulot imkon qadar turli o‘yin materiallari bilan boyitilgan bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagи bolalarda tashabbuskorlikni shakllantirish ularning shaxs sifatida rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu sifat keyingi ta’lim bosqichlarida ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli tarbiyachi va ota-onalar bolaga tashabbus ko‘rsatish, fikr bildirish, muammoni hal qilish imkonini berish orqali uning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, V.A. “Bola psixologiyasi.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Ergasheva, M.X. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Vygotskiy, L.S. “Bola rivojlanishining psixologik asoslari.” – Moskva: Pedagogika, 2004.

4. Qodirova, N. “Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida o‘yin texnologiyalarining roli.” – “Ilm-fan va zamonaviy ta’lim” jurnali, 2022, №3.
5. Sharipova, G. “Pedagogik faoliyatda innovatsion metodlardan foydalanish.” – “Ta’lim va rivojlanish” jurnali, 2023, №2.